



## HUDUDNING EKSPORT SALOHIYATINI STATISTIK TADQIQ QILISH VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Xurramov Ramazon Allayor o'g'li**

*Termiz davlat universiteti*

*Iqtisodiyot va turizm fakulteti*

*Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Respublikamizda eksport salohiyatini statistik tadqiq qilish va ekonometrik modellasshtirish shuninfdek Surxondaryo viloyatida eksport mahsulotlarining hajmi, resusrslari, sifati, infratuzilmalar, ekologik vaziyat va iqlim ishlab chiqarish imkoniyatlarini belgilab beruvchi omillar haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo, viloyat, hudud, voha, eksport, mahsulot, korxona, o'rik, Qozog'iston, tovor, mahsulot, xo'jalik, xizmat, sertifikat, import, surxon, investitsiya.

Bugungi kunda Surxondaryo viloyatida eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Sifatli, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlarini eksport qilish va Surxondaryo viloyatining eksport salohiyatini oshirish maqsadida, Eksportga ko'maklashish byurosi tomonidan 2016 yil davomida jami 67 ta xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga standartlashtirish, metrologiya, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida bepul konsultativ va amaliy yordamlar ko'rsatildi. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, hozirda Surxondaryo da yetishtirilayotgan ko'chatlar joriy yildan boshlab Tojikiston va Qozog'iston davlatlariga eksport qilinmoqda. So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida eksport hajmi o'sdi, import hajmi esa 54,3%ga kamaydi. Shuningdek, viloyat miqyosida eksport qilingan tovarlar ulushi 185,3 mln \$ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,5 mln \$ yoki 129,3%ga ko'paygan. Import qilingan tovarlar ulushi esa 120,5 mln \$ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 143,6 mln \$ yoki 54,3%ga kamaygan. Shuningdik o'ziga xos iqlimi va tabiatni sabab yurtimizda birinchilardan bo'lib, erta bahordan meva-sabzavot mahsulotlari pishib yetiladigan Surxon vohasida turli xildagi meva-sabzovot mahsulotlari eksport qilinmoqda. Bunga o'rik mahsulotini misol qilib olishimiz mumkin. Vohada o'rik kunlik terib olinib, har kuni 10 tonnadan ortiq mahsulot Rossiya eksport qilinmoqda hamda mahalliy aholi iste'moli uchun ichki bozorlarga chiqarilmoqda. Viloyat sanoati tarkibida 42% - to'qimachilik, 17% - oziq - ovqat, 12% - kimyo va neft - kimyo sanoati, 9% - qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasi egallaydi. Viloyatda jami 3 786 ta sanoat korxonalari, shu jumladan 29 ta yirik va 3 757 ta kichik korxona va mikrofirmalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, 290 ta faoliyatini to'xtatgan yoki vaqtincha to'xtatib qo'ygan, ishlab chiqarish hajmi kamaygan yoki to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalar hamda hududiy investitsiya dasturi va mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan loyihalarning dastlabki ro'yxati



shakllantirildi. Amaldagi hududiy investitsiya dasturi yuqori qo'shimcha qiymatga ega eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ob'ektlarini yaratishga qaratilgan va ko'plab ish o'rirlari bilan tavsiflanadigan loyihamon sonini ko'paytirish maqsadida qayta ko'rib chiqildi va optimallashtirildi. Shu bilan bir qatorda viloyatning kam rivojlangan hududlarida investitsiya va sanoat faolligining o'sishini rag'batlantirish hamda aholi bandligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Umuman olganda Respublikamizda eksport salohiyatini oshirish va ekonometrik modellashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Kelgusi yilda eksport hajmini 23 milliard dollardan oshirish zarurligi ta'kidlandi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 30 dekabr kuni ma'muriy islohotlarni amalga oshirish, Hukumat tarkibi va ish tizimini o'zgartirish masalalari, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 2023 yildagi eng muhim vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda aytib o'tildi. Xususan, joriy yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 5 foizdan yuqori sur'atda oshgan. Eksport hajmi 14 foiz o'sib, 19 milliard dollarni tashkil etgan. Iqtisodiyotga 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib kelgan. Sanoatda 5 foizdan, qishloq xo'jaligida 3 foizdan va xizmatlar sohasida 14 foizdan ziyod o'sishga erishish maqsadi belgilandi. Surxondaryoda 55 mingta oilani kambag'allikdan chiqarish lozim. Buning uchun esa vohada eksport salohiyatini oshirish lozim. 2022-yilda tovarlar eksporti hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,1 foizga oshgan. Respublika eksportining o'sishi sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyoiy moddalar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining o'sish sur'atlari oshgani bilan izohlanadi. Eksportning kamayishi Surxondaryo (-23,3 foiz), Buxoro (-2,1 foiz), Jizzax (-1,1 foiz) viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda (-13,6 foiz) kuzatildi. Surxondaryo viloyatida eksport hajmining qisqarishi meva-sabzavot mahsulotlari va ip-kalava eksporti bilan bog'liqdir. Asosan voha meva-sabzavot eksportida respublikada yetakchilik qilmoqda. 2022-yilda Surxondaryo viloyati - 14,4 ming tonna, Samarqand viloyati - 11,7 ming tonna, Buxoro viloyati - 8,1 ming tonna, Toshkent viloyati - 7,4 ming tonna, Xorazm viloyati - 6,8 ming tonna, Farg'ona viloyati - 6 ming tonna, Andijon viloyati - 5,7 ming tonna, Qashqadaryo viloyati - 3,9 ming tonna, Qoraqalpog'iston R. - 3,8 ming tonna, Namangan viloyati - 3,4 ming tonna, Toshkent shahri - 3,2 ming tonna, Jizzax viloyati - 2,4 ming tonna, Sirdaryo viloyati - 1,8 ming tonna, Navoiy viloyati - 76,8 tonna mahsulotlar eksport qilingan. Eksportga rasmiylashtirilgan tovarlarning o'sishi asosan ushbui tovarlar eksportining ko'payishi hisobiga to'g'ri keladi:

- dukkakli ekinlar — qiymati 41,5 mln \$;
- ip-kalava — qiymati 30,9 mln \$;
- mis konsentrati — qiymati 19,7 mln \$;
- un — qiymati 4,8 mln \$;
- karam — qiymati 4,3 mln \$;
- ipak va mato — qiymati 2,7 mln \$;
- sement — qiymati 2,2 mln \$;



gilos — qiymati 2,1 mln \$;  
piyoz — qiymati 1,7 mln \$.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yaqin yillarga qadar viloyat sanoat mahsulotlari eksporti hududning iqtisodiy imkoniyatlarini to'la aks ettira olmagan. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun esa hudud darajasida eksport jarayonlariga ta'sir qilayotgan ichki va tashqi omillarni chuqur tahlil qilgan holda, uslubiy materiallar tayyorlash, chop etish, targ'ib qilish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ilyosov.A Some problems in digital production and export of industrial products in the digital economy.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz.
3. Белокур О.С., Цветкова Г.С. (2021) Сценарии развития экспортного потенциала провинциального региона // Экономика, предпринимательство и право, (11(7)), 1689-1704.
4. Abramov A. Xalqaro savdo. -M.: Bustard. 2007 yil.
5. Gluxov N.V. Afonichkin V.A. Xalqaro savdo asoslari.- SPb .: PETER.-2006.